

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

**Qo'qon davlat universiteti
rektori**



D.Sh.Xodjayeva

07 2025-yil

**Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim oliy ta'limni olish uchun
Qo'qon davlat universitetiga suhbatga yakka tartibda suhbat asosida
o'qishga qabul qilish bo'yicha**

BAHOLASH MEZONI

Qo'qon-2025

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Baholash mezoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi NIZOM talablari asosida universitetning Ilmiy Kengashida muhokama etilib ishlab chiqilgan. Talabgorlar o'qish istagini bildirgan ta'lim yo'nalishlariga Ilmiy Kengash tomonidan tasdiqlangan qarorga asosan kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali Qo'qon davlat universitetining tegishli ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishini davom ettirish uchun qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Quyidagi talablarga javob bergan talabalar yakka tartibdagi suhbat jarayonlarida qatnashish huquqiga ega bo'ladilar:

- Talabgorlar oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lishi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining <https://my.edu.uz> rasmiy veb sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur.

2-bob. Suhbatning maqsadi.

3. Suhbatning maqsadi oliy ta'limda o'qish istagini bildirgan talabgorlar yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, shaxsiy yutuqlari bilan o'rnak bo'la oladigan, mutaxassisligi bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi va mohiyatini tushuna olishi, ularni o'zining bo'lajak sohasi uchun tadbiq eta olishi hisoblanadi.

3-bob. Suhbat jarayoni tartibi.

4. Yakka tartibdagi suhbat uchun savollar Qo'qon davlat universiteti qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Suhbat jarayonida talabgorlarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- Mamlakatda tanlagan sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi. Mehnat faoliyati olib borayotgan soha bo'yicha umumiy ma'lumot bera olishi;
- Ikkinchi ta'lim sifatida tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) hamda 2-ta'lim olishdan maqsadi va istiqboldagi rejalarini bayon eta olishi;
- Tanlangan sohasi (yo'nalishi) bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar haqidagi fikrlarini bayon eta olishi;
- Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi (tanlangan ta'lim yo'nalishiga mos qo'shimcha savollar berish orqali baholanadi).

6. Yakka tartibdagi suhbat bitiruvchining shaxsan ishtirokida o'tkaziladi. Bunda bitiruvchi suhbat komissiyasiga o'zining portfoliosini taqdim etadi.

7. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgor suhbat komissiyasi tomonidan oldindan tasdiqlab qo'yilgan biletlardan birini ixtiyoriy ravishda tortadi. Tanlangan biletning raqamini Suhbat komissiyasiga eshittiradi. Suhbat komissiyasi talabgorga suhbatga tayyorlanish uchun 10 daqiqa vaqt beradi. Vaqt yakunlanganidan so'ng talabgor suhbatdan o'tadi.

8. Bitiruvchi tomonidan tayyorlangan portfolioning haqiqiylikiga talabgor javobgar bo'lib, yakka tartibdagi suhbat jarayonida qabul komissiyasi a'zolari tomonidan o'rganib chiqiladi. Portfolioning haqiqiylikini bilish uchun talabgorga qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

9. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Mezonning **1-ilovasiga** muvofiq namunaviy shakldagi talabgorning suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasi (keyingi o'rinlarda — suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasi) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasiga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra tegishli ballar belgilab boriladi va imzolanadi.

10. Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasidagi ballar qo'yiladi hamda komissiya a'zolari tomonidan imzolanib shu asosida ushbu Mezonning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasi (keyingi o'rinlarda — suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasi) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Talabgor tomonidan jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasiga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan imzolangan va to'ldirilgan suhbat mobaynida 60 ball va undan yuqori ball bo'lganida talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida o'qib eshittiriladi. Bundan tashqari universitetning rasmiy sahifasiga joylanadi.

11. Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasiga asosan talabalikka tavsiya etilganlar belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlari bajarilgandan so'ng oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichiga o'qishga qabul qilinadi.

12. Suhbat komissiyasi tomonidan talabgorlarni baholash mezonlari quyidagicha taqsimlanadi (3-ilova):

№	Savollik	Ball
1-savol. Mamlakatda tanlagan sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi. Mehnat faoliyati olib borayotgan soha bo'yicha umumiy ma'lumot bera olishi.		
1.	Soha bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tushunish darajasi	10 ball
2.	Soha bo'yicha islohotlarga munosabati	10 ball
3.	Sohani rivojlantirish bo'yicha islohotlarga taklif va tavsiyalari	5 ball
Jami		25 ball
2-savol. Ikkinchi ta'lim sifatida tanlagan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) hamda 2-ta'lim olishdan maqsadi va istiqboldagi rejalarini bayon eta olishi		
1.	Bakalavriatning mazkur yo'nalishini tanlashdan maqsadi va kelajak rejalar	10 ball
2.	Tanlagan kasbini jamiyatga va davlat rivojlanishiga ta'sirini tushunishi	15 ball
Jami		25 ball
3-savol. Tanlangan sohasi (yo'nalishi) bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar haqidagi fikrlarini bayon eta olishi.		
1.	Tanlangan sohasi (yo'nalishi) bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar haqidagi fikrlarini bayon eta olishi.	25 ball
Jami		25 ball
4-savol. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi (tanlagan ta'lim yo'nalishiga mos qo'shimcha savollar berish orqali baholanadi).		
1.	Berilgan savolning mazmun mohiyatini tushuntirib berishi	15 ball
2.	Mazkur sohada ish tajribasining mavjudligi	10 ball
Jami		25 ball

4-bob. Apellyatsiya berish tartibi.

13. Suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

14. Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan

holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar.

15. Mazkur baholash mezonini qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

16. Ushbu baholash mezoni talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ikkinchi ta‘limda o‘qish uchun hujjat topshirgan fuqarolarni _____ ta‘lim shakliga qabul qilish uchun o‘tkazilgan suhbat

BAYONNOMASI

Talabgorning F.I.O. _____

Ta‘lim yo‘nalishi _____

Ish joyi va lavozimi _____

№	Savol	Ball
1	Mamlakatda tanlagan sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi. Mehnat faoliyati olib borayotgan soha bo‘yicha umumiy ma‘lumot bera olishi.	
2	Ikkinchi ta‘lim sifatida tanlagan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish) hamda 2-ta‘lim olishdan maqsadi va istiqboldagi rejalarini bayon eta olishi.	
3	Tanlangan sohasi (yo‘nalishi) bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar haqidagi fikrlarini bayon eta olishi.	
4	Tanlangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi (tanlangan ta‘lim yo‘nalishiga mos qo‘shimcha savollar berish orqali baholanadi).	
Umumiy ball		

Komissiya a‘zolari: _____

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI QO‘QON DAVLAT UNIYERSITETI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ikkinchi ta‘limda o‘qish uchun hujjat topshirgan fuqarolarni _____ (ta‘lim shifri) – _____ (ta‘lim yo‘nalishi nomi)” yo‘nalishi bo‘yicha _____ ta‘lim shakliga o‘qishga qabul qilish uchun o‘tkazilgan suhbat

QAYDNOMASI

“ ____ ”. _____ 2025-yil

№	ID	FIO	Pasport seriyasi va raqami		BALL
1					
2					
3					
4					
5					

Komissiya a‘zolari:

_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____

**2025/2026 O'QUV YILI UCHUN QABUL BO'YICHA
REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM YO'NALISHLARI**

T/r	Shifr	Ta'lim yo'nalishlari nomi
1	60110300	Maxsus pedagogika: logopediya
2	60110400	Boshlang'ich ta'lim
3	60110800	Ona tili va adabiyoti: rus tili
4	60110900	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili
5	60540200	Amaliy matematika